


## 95. Sonni 2 ga bo'lish

Yondosh mavzu:  
kitob o'qish.

Ko'paytirish, bo'lish,  
teskari operatsiyalar.



Bitta cho'pni shunday olingki,  
natijada to'g'ri tenglik hosil bo'lsin.



1. Taqqoslang.

$$10 : 2 \square 6 : 2$$

$$8 \cdot 2 \square 6 \cdot 2$$

$$5 \cdot 8 \square 5 \cdot 2$$

$$14 : 2 \square 8 : 2$$

$$16 : 2 \square 12 : 2$$

$$7 \cdot 2 \square 10 : 5$$



2. Maftuna dugonalariga kitob uchun 12 ta qistirgich sovg'a qildi. To'rtta dugonasidan har biri nechta qistirgich olgan? Agar Maftunaning dugonalari 6 nafar bo'lsa, ularning har biri ko'p qistirgich olgan bo'larmidi yoki kam qistirgich olgan bo'lardimi?



$$a : b = c$$

bo'linuvchi    bo'luvchi    bo'linma

**Bo'linuvchi  $a$  qancha katta bo'lsa, bo'linma  $c$  shuncha katta bo'ladi.**

**Bo'luvchi  $b$  qancha katta bo'lsa, bo'linma  $c$  shuncha kichik bo'ladi.**



3. Matn bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini toping:

- 8 va 2 sonlari bo'linmasini 25 taga orttirish;
- 12 va 4 sonlari bo'linmasini 48 taga orttirish;
- 81 sonidan 9 va 2 sonlari ko'paytmasini ayirish;
- 2 va 7 sonlari ko'paytmasini 69 taga orttirish.




4. Farangiz minutiga 76 ta so'z, Akbar esa 16 ta kam so'z o'qiydi. Azim Akbardan minutiga 13 ta ko'p so'z o'qiydi. Jadvaldan foydalanib, har bir o'quvchini baholang.

| "5" ga              | "4" ga                   | "3" ga                   | "2" ga            |
|---------------------|--------------------------|--------------------------|-------------------|
| 70 tadan ortiq so'z | 55 tadan 70 tagacha so'z | 40 tadan 54 tagacha so'z | 40 tadan kam so'z |



5. Algoritm bo'yicha hisoblashni bajaring. Jadvalni daftaringizga ko'chirib yozing.

|   |   |   |   |    |
|---|---|---|---|----|
| x | 2 | 3 | 6 | 10 |
| y |   |   |   |    |



6. Kitob 78 sahifadan iborat. Azim birinchi haftada 60 sahifa o'qidi. Qolgan kunlari u 2 sahifadan o'qidi. Azim kitobni necha kunda o'qib tugatdi?



7. Misollarni yeching va yashiringan iborani o'qing. Uni tushuntiring.

a) Ikki xonali sonlarni o'sish tartibida joylashtiring.

**B**  $18 + 81$

**O**  $76 + 15$

**E**  $17 + 86$

**K**  $127 - 92$

**T**  $98 - 25$

**I**  $104 - 58$

b) Uch xonali sonlarni kamayish tartibida joylashtiring.

**A**  $108 - 9$

**E**  $153 + 784$

**N**  $992 - 187$

**K**  $873 - 790$

**Y**  $551 - 397$

**S**  $491 + 501$

d) 2 soni bo'luvchi bo'lgan ifodalardagi harflarni ifodalarning qiymatlari kamayishi tartibida yozing.

**A**  $18 : 9$

**T**  $6 : 2$

**O**  $20 : 10$

**D**  $16 : 2$

**S**  $8 : 2$

**O'**  $10 : 2$



8. Islom bir son o'yladi, unga 823 ni qo'shib, hosil bo'lgan yig'indidan 429 ni ayirdi. Natijada 559 chiqdi. Islom qanday sonni o'ylagan?



9. Ibrohimda 80 tanga bor edi. U 68 tangaga ensiklopediya, qolgan puliga esa 2 ta muzqaymoq sotib oldi. Muzqaymoq qancha turadi?